Qarz munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

Xushvaqov Islombek Muxammadi o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
katta o‘qituvchisi, PhD
xushvaqovislombek86@gmail.com
+998 (91) 963-99-64

Annotatsiya. Mazkur tezisda qarz munosabatlarining jamiyat va iqtisodiyotdagi o‘rni, uning ijtimoiy ahamiyati, iqtisodiy funksiyalari, huquqiy jihatlari hamda zamonaviy sharoitda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Qarz munosabatlari nafaqat moliyaviy mexanizm, balki ijtimoiy birdamlik va o‘zaro yordamning muhim ko‘rinishi sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: qarz munosabatlari, kredit, foizsiz qarz, ijtimoiy ahamiyat, iqtisodiy funksiya, qarz shartnomasi, huquqiy tartibga solish.

THE SOCIO-ECONOMIC SIGNIFICANCE OF DEBT RELATIONS

Abstract. This thesis analyzes the role of debt relations in society and the economy, their social significance, economic functions, legal aspects, as well as the challenges arising in modern conditions. Debt relations are evaluated not only as a financial mechanism but also as an important manifestation of social solidarity and mutual assistance.

Keywords: debt relations, credit, interest-free loan, social significance, economic function, loan agreement, legal regulation.


Insoniyat paydo bo‘lgandan buyon, odamlar turli sabablarga ko‘ra bir-biriga moddiy yordam qo‘lini cho‘zgan. Shu jarayonda qarz munosabatlari ham vujudga kelib, asta-sekin iqtisodiy va ijtimoiy tuzumning ajralmas bo‘lagiga aylandi. Bu munosabatlarni faqat moliya olamidagi oddiy ayirboshlash sifatida qarash noto‘g‘ri, chunki ular, shuningdek, odamlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlab, jamiyatda o‘zaro hamjihatlikni kuchaytiradi. Bugungi kunda bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan birga qarz munosabatlarining qamrovi yanada kengayib, ular iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Qarz deganda, bir shaxs o‘z mablag‘ini yoki mol-mulkini vaqtincha boshqasiga berib, keyin uni qaytarib olishga qaratilgan munosabat tushuniladi. Arab nutqida “qarz” so‘zi “dayn” yoki “qard” shaklida ishlatiladi. Lug‘aviy ma’noda esa bu atama “bo‘lak” yoki “kesmoq”[1] degan ma’noni anglatadi. Ya’ni “qarz bergan kishi molidan bir qismini kesib, boshqaga beradi”[2]. Qarzning ijtimoiy qimmati, ayniqsa, uning o‘zaro yordam va birodarlik ruhida namoyon bo‘lishidadir. Islom ta’limotida qarzga bo‘lgan e’tibor ayniqsa yuqori bo‘lib, u xolis niyat va Allohning roziligi yo‘lida, hech qanday foyda kutmasdan, faqat muhtojlikni yengillashtirish uchun qilinadigan ezgu amal sifatida baholanadi. Demak, qarz – bu iqtisodiyotga oid oddiy harakat emas, balki unda axloqiy va ma’naviy jihatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Azaldan shariat va xalq orasida qarzni o‘z vaqtida qaytarmaslik gunoh deb qaralgan. Ushbu an’ana jamiyatda qarz munosabatlariga nisbatan mas’uliyatli munosabat shakllanishiga sabab bo‘lgan va odamlarni kelishuvga sodiq bo‘lishga undagan.

Iqtisodiy tizimda qarz bir necha muhim vazifalarni o‘taydi. Iqtisodchi olimlarning fikricha, kredit nafaqat qarz berish jarayoni, balki iqtisodiy faollikni oshiruvchi, sarmoyaviy tashabbuslarni ilgari suruvchi moliyaviy mexanizmdir.

---

[1] Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qarz va unga bog‘liq masalalar. – T.: “HilolNashr”, 2022.

[2] Abduvaxabova Surayyo Zokirxo‘ja qizi. ISLOMDA QARZ TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. 18-to’plam 1-son aprel 2025.



1-rasm. Qarzning asosiy vazifalari

Avvalo, qarz tufayli vaqtincha ishlamay turgan pul mablag‘lari muomalaga qaytadi va ular samarali ishlatilishi mumkin bo‘lgan sohalarga yo‘naltiriladi. Natijada resurslar turli korxonalar va fuqarolar o‘rtasida optimal taqsimlanib, iqtisodiyotdagi tovar-pul muomalasining uzluksizligi ta’minlanadi.

Ikkinchidan, qarz iqtisodiy o‘sishni moliyaviy ta’minlashning muhim manbaidir. O‘z mablag‘i yetarli bo‘lmagan tadbirkor yoki fuqaro o‘z g‘oyasini amalga oshirish uchun qarzga murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Aynan qarz evaziga ko‘plab loyihalar hayotga tatbiq etilib, yangi korxonalar ochilmoqda va odamlar ish bilan ta’minlanmoqda.

Uchinchidan, iqtisodiyotdagi beqarorlik davrida qarz munosabatlari o‘ziga xos xavfsizlik “yostig‘i” vazifasini o‘taydi. Ular yordamida korxonalar va fuqarolar vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarni yengib o‘tishga erishadilar.

To‘rtinchidan, qarz ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Kredit hisobidan xom-ashyo, asbob-uskunalar va boshqa zarur vositalar sotib olinadi. Iste’molchilar esa o‘z moliyaviy imkoniyatlari yetarli bo‘lmaganda kechiktirilgan to‘lov bilan tovarlarni xarid qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasida qarz oldi-berdi munosabatlari Fuqarolik kodeksining “Qarz va kredit” deb nomlangan 41-bobi bilan tartibga solinadi. Kodeksga binoan, qarz shartnomasiga ko‘ra, qarz beruvchi pul yoki o‘xshash belgilarga ega bo‘lgan boshqa mol-mulkni qarz oluvchiga mulk qilib topshiradi, qarz oluvchi esa shu miqdordagi pulni yoki aynan o‘sha turdagi ashyolarni qaytarib berishi zarur. “Belgilangan muddatda qarz beruvchi tomon berilgan miqdordagi mablag‘ni (qarzni) talab qilish huquqiga ega, chunki qarz – bu shartnoma, kelishuv bo‘lib, berilgan mol-mulk o‘z egasiga qaytarilishi lozim. Shuning uchun qarz to‘liqcha muddati kelishi bilan darhol qaytarilishi lozim, chunki belgilangan muddat ortga yoki oldinga surilishi bilan qarz miqdori o‘zgarib qolmaydi. Ma'lum muddatga berilgan qarz uning muddati tugamasdan talab qilinishi ham mumkin emas”[3]. Qarz shartnomasining yozma shaklda tuzilishi katta ahamiyatga ega. Agar fuqarolar o‘rtasidagi qarz summasi BHMning o‘n

[3] N.Botirovaning "Islom iqtisodiyotida qarz masalalari" Toshkent Islom Universiteti, 2010

baravaridan oshsa, yozma shakl majburiy hisoblanadi. Agar taraflardan biri yuridik shaxs bo‘lsa, u holda qarz miqdoridan qat’i nazar, shartnoma yozma shaklda bo‘lishi lozim[4].

Sudlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qarz munosabatlari qonuniy rasmiylashtirilmaganda kelajakda jiddiy muammolar kelib chiqmoqda. Masalan, 2018 yilning ilk yarmida fuqarolik sudlariga qarz undirish haqida 5,8 mingga yaqin da’vo tushgan bo‘lib, ularning 4,5 mingdan ortig‘i qanoatlantirilgan[5]. Bu raqamlarning o‘zi qarzga oid nizolarning qanchalik dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, agar qarz shartnomasi yozma rasmiylashtirilmagan bo‘lsa, kelishmovchilik yuzaga kelgan paytda guvohlarning so‘zlari asos qilib olinmaydi. Shuning uchun huquqshunoslar, odatda, qarzni tilxat yoki notarial tasdiqlangan shartnoma orqali rasmiylashtirishni maslahat beradilar..

Hozirgi kunda qarz munosabatlarida bir qancha salbiy holatlar kuzatilmoqda. Ko‘pincha odamlar faqat “ishonch” tufayli, hech qanday hujjatsiz qarz berib qo‘yadilar, biroq qarz o‘z vaqtida qaytarilmasa, uni undirish juda qiyinlashadi. Bu ahvol ko‘pchilikni sud yo‘laklariga olib kirib, qo‘shimcha ruhiy va moddiy mashaqqatlarga duchor qilmoqda. Shuningdek, qarz bilan bog‘liq foiz masalasi ham ko‘p tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. Islom qonun-qoidalarida foiz bilan qarz berish qat’iy man etilgan bo‘lsa, zamonaviy moliya tizimida bu amaliyot asosiy daromad manbai hisoblanadi. Fuqarolar o‘z e’tiqodi va axloqiy qarashlaridan kelib chiqib, foizli yoki foizsiz qarz o‘rtasida tanlov qilishlari mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, qarz munosabatlari jamiyat hayotida iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim o‘rin egallaydi. Ular nafaqat mablag‘larni qayta taqsimlab, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki kishilar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va birdamlikni ham mustahkamlaydi. Qarz munosabatlarining qonuniy va to‘g‘ri tashkil etilishi iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Biroq, bu sohadagi muammolarni bartaraf etish uchun aholining huquqiy savodxonligini oshirish, qarz shartnomalarini albatta yozma shaklda va kerak bo‘lsa, notarial tasdiqlash orqali amalga oshirish zarurligini kundalik hayotga singdirish lozim. Faqat shunday yondashuvgina qarz munosabatlarini o‘zining to‘liq ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bilan namoyon bo‘lishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qarz va unga bog‘liq masalalar. – T.: “Hilol-Nashr”, 2022.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Bozor va unga bog‘liq masalalar. – T.: “Hilol-Nashr”, 2022.
3. Abduvaxabova Surayyo Zokirxo‘ja qizi. Islomda qarz tushunchasi va uning huquqiy asoslari. Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi. 18-to’plam 1-son aprel 2025.
4. N.Botirovaning “Islom iqtisodiyotida qarz masalalari” Toshkent Islom Universiteti, 2010.
5. https://lex.uz O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 01.03.1997.
6. https://sud.uz O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi.

[4] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 01.03.1997

[5] https://sud.uz O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi